# INSON KAPITALIGA OID EVOLYUTSION NAZARIYALAR TAHLILI

**Ruzikulova Dilnoza Xoliqovna**
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shaxrisabz filiali
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
**https://doi.org/10.5281/zenodo.14191888**

***Annotatsiya.*** *Maqolada inson kapitali konsepsiyasininig rivojlanish tarixi, nazariyalari evolyutsion tarzda o‘rganganilgan. Inson kapitali tushunchasi, mohiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, uning o‘zaro bog‘liq elementlari tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *inson kapitali, konsepsiya, inson kapitali nazariyasi, baholash, mehnat sifati, rivojlanish*

***Аннотация.*** *В статье в эволюционном ключе изучаются история и теории развития понятия человеческого капитала. Изучено понятие человеческого капитала, его сущность, характеристики и взаимосвязанные элементы.*

***Ключевые слова:*** *человеческий капитал, концепция, теория человеческого капитала, оценка, качество труда, развитие.*

***Abstract.*** *The history and theories of the development of the concept of human capital are studied in an evolutionary way in the article. The concept of human capital, its essence, characteristics, and its interrelated elements are studied.*

***Key words:*** *human capital, concept, theory of human capital, evaluation, labor quality, development*

**Kirish**

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda inson kapitaliga, uning qobiliyatlari va sifat xususiyatlariga ko‘proq e’tibor qaratib kelinmoqda, chunki ular yordamida jamiyat rivojlanib, dunyo hamjamiyati o‘zgaradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday davlatda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismi sifatida inson kapitalining rolini oshirishga e’tibor qaratish talab etiladi.

Zamonaviy biznes subyektlarida korxonaning strategik rivojlanishini xodimlarning intellektual va jismoniy imkoniyatlaridan birgalikda foydalanish orqali ta’minlash mumkin. Bu borada xodimlar bilan o‘zaro munosabatlarda qo‘llaniladigan usullarini tanlash boshqaruv tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Katta ko‘lamdagi axborotni qabul qilish, tahlil qilish va qayta ishlash orqali menejer inson resurslarini boshqarishning samarali usullarini tanlab oladi [3].

Zamonaviy sharoitda menejment eng zaruriy ishlab chiqarish resurslari va xodimlarning kasbiy mahoratini yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni qo‘llash bilan birlashtirgan mustaqil faoliyat turi sifatida faoliyat yuritadi [10]. Bunday sharoitda ishlab chiqarish jarayoni natijalari va yakuniy iqtisodiy ko‘rsatkichlar ko‘p jihatdan boshqaruv darajasiga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash zaruriyatini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot ishida tizimli va statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, grafik talqin, taqqoslash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan. Inson kapitali nazariyasini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Mehnat nazariyasi va inson resurslarini boshqarishning shakllanishi turli

fanlar ta’siri ostida, shuningdek empirik tarzda vujudga kelib, bu tegishli me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

“Inson kapitali” tushunchasi bo‘yicha ilmiy munozaralar ko‘p yillar mobaynida davom etib bordi. L.Turou inson kapitalini mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati sifatida tavsiflagan va barcha investitsiyalar samaradorligiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy salohiyatni ajratib ko‘rsatgan. E.Dolan va J.Lindsey inson kapitalini ta’lim jarayonida yoki amaliyotda egallangan aqliy qobiliyatlarning mavjudligi deb ta’riflagan [6]. V.S.Yefimov inson kapitalini mahsulot uchun qo‘shimcha qiymatni ta’minlaydigan ishlab chiqarish jarayonining mustaqil elementi sifatida ta’riflagan [17].

A.I.Dobrinin, S.A.Dyatlov, E.D.Sirenova kabi rus olimlarining fikriga ko‘ra, inson kapitali - bu shaxs tomonidan to‘plangan, ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan, mehnat unumdorligini oshirishga va daromadlarni oshirishga yordam beradigan bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, motivatsiyalar zaxirasidir [9].

S.G.Mixeyeva inson kapitalini innovatsiyaning funksional elementi sifatida ko‘rsatib o‘tgan bo‘lib, u ko‘nikma, amaliy tajriba, yangi bilimlarni ishlab chiqarish uchun intellektual qobiliyatni va raqobatda boshqa afzalliklarni ta’minlaydi [11].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Ubaydullaeva [16], Sh.G.Akramovalarning [2] tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga inson kapitalining ta’siri masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

**Tahlil va natijalar**

Inson kapitali konsepsiyasining dastlabki bosqichi 1962 yil oktyabr oyida chop etilgan “Siyosiy iqtisod” jurnali bilan boshlangan. Uning “Insonlarga investitsiya” nomli ilovasida inson kapitali nazariyasi bilan bog‘liq asosiy muammolarga bag‘ishlangan qator maqolalar nashr etilgan. Bu nazariya zamonaviy iqtisodiyot nazariyasida mehnat sifatini shakllantirish muammolarini tahlil qiladi.

Dastlabki davrda mazkur nazariyalarni evolyutsion tarzda o‘rganganlar qatoriga amerikalik olimlar S. Beyker, R. Uesbrodt, F. Dennisonlar kiradi. Ular o‘z tadqiqotlarida tadqiqot predmeti sifatida inson kapitali ishlab chiqarish malakalari va bilimlariga asoslangan mehnat resurslari orqali amalga oshirilishini, kelajakda iqtisodiy aktivlar sifatida ma’lum qiymatga ega bo‘lishini taklif etganlar.

Shuningdek, inson kapitali konsepsiyasida asosiy o‘rinni U.Petti, A.Smit kabi mashhur iqtisodchilarning izlanishlari tashkil etadi. Xususan, 17-asr klassik burjua siyosiy iqtisodining asoschisi U.Petti mehnat va yerni qiymat manbalari deb hisoblagan edi. V.Pettining fikri merkantilizmga moyil edi, shuning uchun u birinchilardan bo‘lib “insonning ishlab chiqarish kuchlariga” pul qiymatini berishga harakat qildi [14].

Shu tarzda, V.Petti “inson kapitali nazariyasi”ning shakllanishiga asos soldi Ingliz klassik maktabining yana bir vakili A.Smit asosiy kapitalga mashinalar va boshqa asbob-uskunalar, binolar, yer va “barcha aholi va jamiyat a’zolarining orttirilgan va foydali qobiliyatlari” kiradi, deb yozgan edi. Uning ta’kidlashicha, "inson kapitaliga kiritilgan qo‘yilmalar foyda bilan qaytariladi”. “Inson kapitali kontseptsiyasi”ning rivojlanish davri XX asrning 60-yillariga to‘g‘ri kelib, dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lgan AQSHda boshlangan. Bu nazariyalar ilmiy-texnika taraqqiyotining yuqori sur’atlari sharoitida insonning potensial qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha to‘plangan tajribani umumlashtirishga tayangan edi [12].

Nazariyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yetakchi va rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovut bilan, shuningdek, milliy va xalqaro darajadagi yirik korporatsiyalar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi.

**1-jadval**

**Inson kapitali konsepsiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlari[1]**

| Bosqich | Yondashuv namoyondalari | Asosiy natijalar |
|---|---|---|
| Inson kapitali tushunchalarining vujudga kelish davri 18-asrning 70-yillari | (Petti (1676) va Adam Smit (1776) asarlari | Inson kapitali asosiy kapitalning to‘rt turidan biri sifatida "har qanday jamiyatning barcha yashovchilarining orttirilgan va foydali qobiliyatlari" deb ta’riflangan. |
| Inson kapitali tushunchalarining shakllanishi davri 20-asrning ikkinchi yarmi | (Irving Fisher (1906), Teodor Shults (1960, 1961, 1963), Gari Bekker (1962-1964), Jeykob Minser (1970, 1974) va boshqalar asarlari) | Nazariyalarning paydo bo‘lishi va inson kapitali konsepsiyasining asosiy tamoyillari belgilab berildi. Konsepsiya yo‘nalishlari belgilandi. |
| Inson kapitali konsepsiyasining rivojlanishi Hozirgi davr | Asosiy e’tibor Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida inson kapitali konseptsiyasi (1994). | Moliyaviy natijalar va biznes qiymatiga inson kapitalining tabiati va ta’sir darajasini aniqlashga harakatlar |

“Inson kapitali ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor tipidagi iqtisodiyotga ega jamiyat taraqqiyotining postindustrial bosqichida inson ishlab chiqaruvchi kuchlarini ifodalash shaklidir. T.Stounyerning fikricha, inson kapitali postindustrial jamiyatning eng muhim resursidir” [5].

Jamiyat farovonligini yaratuvchi innovatsion texnologiya yuqori texnik bilim va tashkiliy takomillashtirish orqali samarali ishlaydi. Shunga ko‘ra, faqat innovatsion kadrlar yuqori texnologiyali jarayonlar va uskunalarni boshqarishga qodir.

Iqtisodchilarning fikricha, milliy iqtisodiyotning o‘sishi inson kapitalidan foydalanish hisobiga 60%, jismoniy kapital hisobiga esa atigi 20% bo‘lishi mumkin [7].

Jamiyat uchun inson kapitalidan foydalanishning asosiy jihati ishlab chiqarishning qo‘shimcha o‘sishidir. Ushbu nazariyaga hissa qo‘shgan amerikalik iqtisodchi G.Bekker o‘zining "Inson kapitali" asarida "maxsus inson kapitali" tushunchasini kiritdi va "har qanday korxona, har qanday faoliyat turi uchun manfaatli bo‘lgan ko‘nikmalar tushuniladi".[4]

“Inson kapitali nazariyasining rivojlanishi “milliy boylik” tushunchasining kengaytirilgan talqini bilan ham bog‘liq. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, “boylikning asosiy shakllaridan biri insonda moddiylashgan umumiy va maxsus bilim, uning samarali mehnat qilish qobiliyatidir. J.Kendrik ham ko‘plab amerikalik iqtisodchilar singari yangi texnologiyada

[1] Muallif ishlanmasi

to‘plangan ilmiy bilimlarni boylikning nomoddiy shakllari deb hisoblagan. Milliy boylikning kengaytirilgan konsepsiyasi inson salomatligini saqlashga kiritilgan investitsiyalarni ham o‘z ichiga oladi” [8].

Intellektual kapital nazariyasiga oid boshqa xorijiy olimlar ham izlanishlar olib bogan, xususan, R. Krouford, T. Styuart, J. Tobin va L. Edvinssonlar shular jumlasidandir.

Inson kapitali va uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash asosan kapital shakllanishining samaradorligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

Nobel mukofoti sovrindori J.Tobin intellektual kapitaldan foydalanish koeffitsiyentini aktivlarning bozor qiymatining uni almashtirish qiymatiga nisbati sifatida hisoblashni taklif etgan.

Daromadlarni taqsimlashga funksional yondashuv doirasida inson kapitali daromad keltiruvchi omil sifatida an’anaviy ishlab chiqarish omillari tarkibiga kiradi.

Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, ta’lim sohasiga qo‘yilgan investitsiyalar natijasida shakllanadigan inson kapitali moddiy kapitaldan tubdan farq qilmaydi, chunki u foydani ham ta’minlaydi. Ammo ikkala omil - mehnat va inson kapitalidan foydalanishdan olingan daromad ish haqi tarkibida sintezlanadi, uning tarkibida ikkita omil elementi ajralib turadi: inson kapitali uchun to‘lov (murakkab mehnat natijasi) va ishchining mehnatidan foydalanganlik uchun to‘lov (oddiy mehnat natijasi).

Inson kapitali iqtisodiy qadriyat bo‘lib, odamlarning ko‘nikmalarini, jumladan, bilim, ko‘nikma, qobiliyat, munosabat va tajribani o‘lchash vositasidir. Keyinchalik nemis iqtisodchisi R.Shults (1981) “inson kapitali” tushunchasiga “odamlar tomonidan qo‘lga kiritilgan qimmatli va tegishli investitsiyalar bilan to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan obyektlar” ta’rifini taklif qildi [18]. Inson kapitaliga urg‘u berish (masalan, "jismoniy va moliyaviy kapital" boshqa shakllarga nisbatan) inson hayotining bir qismidir. Chunki u inson va kapital, shuningdek, o‘zaro manfaat, daromad yoki har ikkala manba bilan ham tahlil qilinadi.

Mahalliy iqtisodchi olim O.Aripov “inson kapitali – bu iqtisodiy rivojlanish, jamiyat va oila taraqqiyotining intensiv ishlab chiqaruvchi omili, shu jumladan ishchi kuchining o‘qimishli qismi, bilimlar, intellektual va boshqaruv ishlari vositalari, yashash joylari va ish faoliyati bo‘lib, samarali va oqilona ishlashini ta’minlaydi. Inson kapitali tabiiy resurslar yoki to‘plangan boylikdan ko‘ra muhimroq bo‘lgan eng qimmatli resursdir” [1] deya ta’kidlagan.

Yigirmanchi asrning 90-yillaridan keyingi davrni inson kapitali nazariyasi rivojlanishining yangi bosqichi deb atash mumkin, uni tashqi sharoitlarning murakkablashishi va jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi bilan bog‘lash mumkin. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning mavjud zaxiralari va yo‘llarini izlash zaruriyati paydo bo‘lgan edi. Barcha mumkin bo‘lgan resurslardan "inson resurslari" yoki "inson salohiyati" tashkilot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun eng yuqori imkoniyatlarni ta’minlaydigan manbaga aylandi. Mamlakat, mintaqa yoki korxonaning "mehnat salohiyati" mehnatga layoqatli aholi soni, uning kasbiy va ta’lim darajasi va boshqa sifat xususiyatlari bilan tavsiflanadigan hozirgi va yaqin kelajakdagi mehnat imkoniyatlari sifatida qarala boshlandi. O‘z navbatida, «mehnat resurslari» deganda faqat iqtisodiy faol, mehnatga layoqatli aholi, mehnat faoliyatida ishtirok etish uchun jismoniy va ma’naviy qobiliyatlarga ega bo‘lgan aholi qismi tushuniladi. "Inson omili" investitsiyalarning ishlab chiqarish vositalari va buyumlari, texnologiyalari va boshqalardan kam bo‘lmagan muhim turi hisoblana boshladi. Gap shundaki, inson kapitaliga sarmoya kiritish juda foydali.

Zamonaviy sharoitda inson mehnati iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning boyitishi tufayli kapitalga aylanadi. “Tarixiy jihatdan inson kapitali nazariyasi

jismoniy va inson kapitalini shakllantirish jarayonlari o‘rtasidagi o‘xshashlik tamoyiliga asoslanadi: nafaqat moddiy boyliklar, balki odamlarning qobiliyatlari ham to‘planib, zahiraga aylanishi mumkin. Odamlarning bilim va ko‘nikmalari, ularning tajribasi va mahorati o‘z egasiga daromad keltiradigan uzoq muddatli kapital aktiviga aylanishi mumkin. Demak, “inson kapitali - bu shaxsda mujassamlangan qobiliyatlar, bilimlar, malakalar va motivatsiyalar zaxirasi, ya’ni insonning daromad olish qobiliyatining o‘lchovidir” [13]. Inson kapitali ham xuddi jismoniy kapital kabi nafaqat ko‘payish, balki o‘z qiymatini yo‘qotish, ya’ni ma’naviy va moddiy jihatdan eskirish qobiliyatiga ham ega. “Insonning ko‘nikma, malaka va bilimlari kapitalga aylanadi, ular investitsiya jarayonida to‘plash xususiyatiga ega bo‘ladi” [13] uning egasiga (xodimiga) ish haqi shaklida ham, ish beruvchiga ham daromad ko‘rinishida beradi.

**Xulosa va takliflar**

Zamonaviy sharoitda "inson kapitali" nafaqat inson ega bo‘lgan bilim va qobiliyatlarning yig‘indisi, balki ulardan daromad olish va kapitalning boshqa turlarini ko‘paytirish uchun foydalanish imkoniyatidir. Xulosa qilishimiz mumkinki, inson kapitali tushunchasi uning o‘zaro bog‘liq elementlari orqali ochiladi:

1) inson kapitali - bu bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalarning orttirilgan zaxirasi;

2) «ijtimoiy faoliyat sohasida ushbu kapitaldan maqsadga muvofiq foydalanish mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning o‘sishiga yordam beradi;

3) ushbu zahiradan foydalanish joriy iste’molning bir qismini rad etish orqali kelajakda ushbu xodimning daromadi oshishiga olib keladi;

4) daromadning oshishi xodimlarning qiziqishini oshirishga yordam beradi va bu inson kapitaliga qo‘shimcha investitsiyalar kiritilishiga olib keladi;

5) insonning qobiliyatlari, iste’dodlari, bilimlari har bir insonning ajralmas qismidir;

6) motivatsiya inson kapitalini takror ishlab chiqarish (shakllantirish, to‘plash, foydalanish) jarayoni to‘liq yakunlanishi uchun zaruriy elementdir”.

Zamonaviy sharoitda inson kapitali iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan asosiy resurslardan, ilmiy-texnika taraqqiyoti orqali iqtisodiy o‘sishning poydevori sanaladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aripov O. A. Inson kapitalini rivojlanishiga doir mulohazalar. “Interpretation and researches” International scientific journal volume 1 issue 3.2023.
2. Акрамова Ш.Г. (2019) Ўзбекистонда инновацион иқтисодиёт шаклланиши шароитида инсон капиталини ривожлантириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент.
3. Бездудная А.Г. Методы формирования человеческого капитала / Анна Бездудная. – М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2018. – 100 с.
4. Беккер, Г. Человеческий капитал (главы из книги). Воздействие на заработки инвестиций в человеческий капитал. Электронный ресурс] / Г. Беккер // США: экономика, политика, идеология. – 1993 г. – Режим доступа: http://methodology.chat.ru/becker1.htm
5. Боргардт, И.Ф. Проблемы рационального использования человеческого капитала / И.Ф. Боргард // Формирование конкурентоспособной экономики АПК региона: теоретический и практический аспекты. - Материалы XIII Международной научно-практической конференции. Барнаул, 23-24 177 сентября 2014 г. / Алтайский отдел

ФГБНУ СибНИИЭСХ; под науч. ред. Г.М. Гриценко. – Барнаул: Алтайский дом печати, 2014. – 555 с.

6. Долан, Э. Рынок: микроэкономическая модель / Э.Долан, Дж. Линдсей - СПб.: Питер, 1992.- 477 с.
7. Дятлов, С.А. Инвестиции в человеческий капитал: критерии эффективности / С.А. Дятлов // Известия СПбУЭФ, 1996. – №4. – С. 32-51.
8. Кендрик, Дж. Совокупный капитал США и его формирование / Дж. Кендкрик. – М.: Прогресс, 1978 – 263 с.
9. Корчагин, Ю.А. Человеческий капитал и процессы развития на макро и микроуровнях. - Воронеж: ЦИРЭ, 2004. – 186 с.
10. Леонтьев Б.Б. Цена интеллекта. Интеллектуальный капитал в российском бизнесе. – М.: Издательский центр «Акционер». – 2002.
11. Михнева, С.Г. Интеллектуализация экономики: инновационное производство и человеческий капитал /С.Г. Михнева // Инновации. - 2003. - № 1. - С.34-48.
12. Палкина С.О. Формирование и использование человеческого капитала в сельском хозяйстве: диссертация кандидата экономических наук: дис.…канд. экон. наук: 08.00.05 / Палкина Светлана Олеговна. – Пермь. – 2014. – 232 с.
13. Синицына Г.И. Человеческий капитал, оценка качества и эффективности использования: дис. … канд. экон. наук: 08.00.05[Электронный ресурс] / Синицына Галина Иннокентьевна // Иркутск. – 2002. – 144 с. – Режим доступа: http://dlib.rsl.ru/01002308311
14. Тактарова, С.В. Управление формированием человеческого капитала в условиях инновационного развития экономики [Электронный ресурс] / С. В. Тактарова, Г.Н. Тугускина. – Монография. - Москва: Русайнс, 2017. — 214 с. - Режим доступа: https://www.book.ru/book/922730
15. Тугускина Г.Н. Человеческий капитал предприятия: теория, методология, оценка: дис. докт. экон. наук: 08.00.05 / Тугускина Галина Николаевна. - Москва, 2011.- 339 с.
16. Убайдуллаева Р.А. (2017) Институциональные основы и механизмы обеспечения информационной безопасности молодежи. Монография / Под научной редакцией академика Р.А.Убайдуллаевой. Коллективная монография; – Т.: Iqtisod-Moliya, – 220с.
17. Человеческий капитал Красноярского края: Форсайт исследование–2030. Аналитический доклад/под ред.В.С.Ефимова. - Красноярск: Сибирский федеральный университет, 2010. - 126 с.
18. Шульц, Т. Инвестиции в человеческий капитал [Текст / Т. Шульц // Американский экономический обзор. – 1961. – №51. – С. 1-17.